

**Behzodbek TURSUNOV,**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi, (PhD)

E-mail: behzod.tursunov.88@mail.ru

Tel: +998-90-547-88-89

O'DJTU professori, D.B. Bobojonova taqrizi asosida

## ADOPTION OF NORMATIVE DOCUMENTS ON TEACHING FOREIGN LANGUAGES DURING THE SOVIET GOVERNMENT IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the normative documents adopted in Uzbekistan during the Soviet government in order to improve the teaching of foreign languages. The purpose of decisions and decrees to further improve the teaching of foreign languages, to improve it in accordance with modern students, to protect the rights of teachers-professors and students, is explained on the basis of archival data.

**Key words:** Decision, document, foreign languages, state, curriculum, education, education, school, higher education, decree.

## ПРИНЯТИЕ НОРМАТИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ ПО ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ВО ВРЕМЯ СОВЕТСКОЙ ПРАВИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются нормативные документы, принятые в Узбекистане во времена советской власти в целях совершенствования преподавания иностранных языков. На основе архивных данных поясняется цель решений и указов по дальнейшему совершенствованию преподавания иностранных языков, совершенствованию его в соответствии с потребностями современных студентов, защите прав преподавателей-профессоров и студентов.

**Ключевые слова:** Решение, документ, иностранные языки, государство, учебная программа, образование, воспитание, школа, высшее образование, указ.

## O'ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATI DAVRIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHGA DOIR ME'YORIY HUJJATLARNING QABUL QILINISHI

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonda sovet hukumati davrida chet tillarni o'qitishni yaxshilash maqsadida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar tahlil etilgan. Qaror va farmonlarning vazifasi chet tillar o'qitilishini yanada yaxshilashga, uni zamon talabalariga mos ravishda takomillashtirishga, o'qituvchi-professorlar va talabalar huquqlarini himoya qilishga doir ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar arxiv ma'lumotlari asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qaror, hujjat, chet tillari, davlat, o'quv dastur, maorif, ta'lim, maktab, oliy ta'lim, farmon.

**Kirish.** Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha insonlar serqirra dunyoning juda tez o'zgarib borayotganiga nafaqat guvoh, balki jahon madaniyati, fan-texnikasining rivojlanib, taraqqiy etib borishi kabi murakkab va uzluksiz jarayonlarning bevosita ishtirokchilari hisoblanib, chet tilini bilish va uni o'qitishga nisbatan dolzarb masala sifatida qaradilar.

Chet tillarini o'qitish va o'rganishga O'zbekistonda ham davlatning ijtimoiy yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilib, ta'lim sohasini rivojlantirishda hukumat tomonidan yoshlarni nafaqat keng bilim, professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda, chet el mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilishi, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroficha xabardor bo'lishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilindi. Shu munosabat bilan, ushbu sohaga doir me'yoriy hujjatlar qabul qilishga, xususan, xorijiy tillarni o'qitishning huquqiy asoslarini yaratishga muhim e'tibor qaratildi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarning dastlabkilari XX asrning birinchi choragida qabul qilingan. Bu davrda Rossiyada ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar o'lkamizga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Maorif va madaniyat sohasida yangi vazifalar paydo bo'ldi.

**Mavzuga oid adabiyotlat tahlili.** Sovet hokimiyati hukmronligi yillarida yaratilgan tadqiqotlar XX asrning 30-50 yillariga to'g'ri keladi va ularda O'zbekistonda xorijiy tillar o'qitilishiga oid bo'lgan qator ma'lumotlar keltiriladi. Bu davrda yaratilgan ishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki baynalmilal kayfiyat bilan birga, chuqur g'oyaviy bosim seziladi. Ko'proq rus va nemis tillariga (bu mafkuraviy qarashlarni ifodalovchi sabab) katta e'tibor qaratilgan. Shunga qaramay, bu ishlar qatoriga chet tillarni o'qitish uslubining boshqa fanlar bilan yaqin aloqada ekanligi turli soha olimlari tomonidan asoslab berilgan. Ushbu tarixiy davrda yashagan olim M.Behbudiy va A.Fitrat kabi ma'rifatparvarlarning milliy taraqqiyot uchun avvalo, dunyo tajribasini o'rganmoq darkor, deb zamona yoshlarini ilm-ma'rifatga, chet tillarni puxta egallashga chaqirgani, ularning asarlarida aks etadi. Bu borada shoir G'.G'ulom shunday degan edi: "Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir".

O'zbekiston hududida istiqomat qilgan barcha xalqlar qadimdan bir-birlarining tillarini yaxshi bilishgan, tillar ularning yanada yaqin, ahil va do'stona hayot kechirishlari uchun va qarindoshchilik rishtalarini bog'lovchi omil bo'lgan. O'zbeklar yaqin qo'shnilari tilini bilishdan tashqari uzoqdagi xalqlar tilini ham o'rganishlari tarixdan ma'lum. Mahalliy xalqlar orasida arab, fors - tojik tillari o'z davrida keng tarqalgan. Sovet davriga kelib, davlatdan dinning ajratilishi oqibatida sharq tillariga, jumladan, arab tiliga e'tibor susayib ketdi. Bu davrda yaratilgan asarlar ushbu maqolaning g'oyaviy tomonini belgilash va tahlil qilish imkonini berdi.

Turli xalqlarning chet tilini o'rganish tarixi juda boy, bir necha jildlik ilmiy asarlar uchun yetarli, biroq bu borada tizimli ish qilinmagan bo'lsa-da, ta'limga oid qator tadqiqot ishlari mavjud[1]. Tadqiqotchilar asarlarida chet tili o'qitishning yo'lga qo'yilishi va sohada kadrlar tayyorlash siyosatiga doir masalalar birmuncha o'rganilgan[2]. Xususan, sharqshunos olim M.Abdusamatov chet tilini, jumladan, sharq tillarini bilishning ahamiyati va olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga oid ma'lumotlar keltirgan. Ushbu tadqiqotlar manbaviy xarakterga ega ekanligini ham ta'kidlash lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, og'zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Maktablar uchun yangi vazifalarni belgilab bergan birinchi hujjat "Umumiy mehnat maktablarining asosiy printsiplari"da chet tillarni majburiy o'qitiladigan predmetlar qatoriga kiritish zarurligi ko'rsatilgan edi[1]. Shunga

muvofiq, Turkiston xalq maorifi komissarligining umumiy mehnat maktabiga tatbiq etish uchun "...boshlang'ich maktabda mahalliy til, o'rtta maktabda – o'quvchilarning mayliga ko'ra fransuz, nemis, ingliz tillaridan birini majburiy", deb buyruq chiqarishi o'lkada chet tillar o'qitilishiga yo'l ochdi.

1931 yilda O'zbekistonda Toshkent chet tillar ikki yillik kursi tashkil etildi, biroqbu kurslarda mahalliy millat vakillari yo'q edi. Ta'lim tizimi esa xuddi mana shunday tubjoy o'qituvchi kadrlarga muhtoj edi. 1932 yil 25 avgustda VKP(b) Markaziy Komiteti tomonidan "O'quv dasturlari va boshlang'ich hamda o'rtta maktab rejimi haqida" [2] qaror qabul qilindi. Unda "...o'rtta maktabni bitirayotgan har bir o'quvchining bitta chet tilini bilishi" [3] ni ta'minlash lozimligi, chet tilini majburiy predmetlar qatoriga kiritish zarurligi ko'rsatilgan edi. Ushbu qarorda chet tillar o'qitilishini yanada kengaytirish, xorijiy tillardan asosiy o'rin berilayotgan nemis tili o'rniga ingliz hamda fransuz tilini kiritish masalasi vazifa qilib qo'yildi.

1941 yilning yanvar oyida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti "Maktablarda chet tillar o'qitishni yaxshilash to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda ko'rsatilganidek, chet tillari o'qitilmayotgan ayrim maktablarda chet til o'qitishni yo'lga qo'yish hamda 1941/1942 o'quv yilida 5-sinf dan boshlab barcha maktablarda, keyinroq esa barcha qishloq maktablarida ham chet tillar o'qitilishiga erishish shart edi.

O'zbekistonda chet tillarni o'qitishni yo'lga qo'yish va buni yanada takomillashtirish maqsadida bir nechta yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchilar tayyorlash ishini kengaytirish va yaxshilash; chet tili o'qitilmayotgan maktablarda esa tillar o'qitishni yo'lga qo'yish; o'rganilayotgan G'arbiy yevropa tillarini maqsadga muvofiq taqsimlash; ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash; o'qitish sifatini oshirish ustidan nazoratni kuchaytirish va shu kabilar borasida ishlar boshlab yuborildi. Respublika xalq maorifi oldidagi asosiy muammo barcha maktablarda xorijiy tillarni o'qitishni yo'lga qo'yish va nemis tilidan boshqa G'arbiy tillarining ham o'qitilishini to'g'ri yo'lga qo'yish masalasi paydo bo'ldi. Bu boradagi eng muhim vazifa, maktab va oliy o'quv yurtlarini chet tilini mukammal biladigan mutaxassislar bilan ta'minlashdan iborat edi.

Toshkent chet tillar pedagogika institutida 1949 yili sirtqi bo'lim, 1960 yilda kechki bo'lim faoliyat ko'rsata boshladi.

Hukumat qarorida ko'rsatilganidek, ma'lum vaqt o'tib xorijiy tillar o'qitishni kengaytirish ishi barcha maktablar o'quv rejasida bu fanlarning ulushini oshirish yo'li bilan ham olib borilgan. 1959 yilga kelib, Maorif vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, chet tillar respublikadagi 37 foiz maktablarda o'qitilgan[4]. 1961-1962 o'quv yilidan e'tiboran, 25 tadan ortiq o'quvchisi bo'lgan sinflarda, chet tili darslarida ikki guruhga ajratib o'qitish belgilab qo'yildi. Ko'zlangan maqsad, ya'ni o'quvchilarda gapirish, tinglab tushunish hamda o'qish va yozuv malakalarini hosil qilishdan iborat zamonaviy natijalarga erishish maqsad qilingan.

XX asrning 70-yillari boshida chet tillar o'qitish mazmunini belgilashda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunda ayniqsa, sovet hukumatining 1972 yil 16 iyuldagi "Mamlakatda oliy ta'limni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori qabul qilinishi O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari talabalariga ham chet tili o'qitishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi[5]. Bu davrga kelib, respublika o'quv yurtlari malakali chet tillar o'qituvchilari bilan to'la ta'minlashga erishildi. Shu sabab bo'lsa kerak, "chet tili" ixtisosligi beriladigan pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi talabalar soni biroz qisqartirildi. 1973 yilda 2672 nafar talaba qabul qilingan bo'lsa, 1974 yilda 2105 nafar talaba o'qitildi[6].

O'zbek maktablari uchun SSSR Pedagogika Fanlar Akademiyasi tomonidan tayyorlangan dastur loyihasi asosidamoslashtirilgan bir nechta yangi dastur yaratildi. Rossiya rus maktablari dasturi loyihasidagiga nisbatan o'zbek maktablari dasturida o'zlashtirish uchun berilgan namunaviy iboralar va til materiali birmuncha kamroq kiritilgan. Yangi yaratilgan dasturda o'zbek va rus maktablari o'rtasidagi asosiy tafovut yetarli darajada hisobga olingan edi.

**Xulosa va takliflar.** 80-yillarda ham oldingi qarashlar, dars berish usullari, eski darsliklar qo'llanilishi davom etdi. Faqat 1984-1985 o'quv yilidan boshlab ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, zamon ilgari surgan yangi talablar asosida chet tili o'qitishni qaytadan ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. 1984 yilda 4-sinf dan boshlab chet tillari o'qitila boshladi. 4-5-sinf chet tili darsliklari yozilib, nashrdan chiqdi va ular asosida chet tillari o'qitildi. Yuqori sinflarda chet tilidan dars soatlari haftasiga 2 soatdan 1 soatga tushib qolishi soatlarni moslashtirish, qisqartirishda katta qiyinchiliklar tug'dirdi. Respublika maorif vazirligi, malaka oshirish institutlari bular ustida katta ish qilishlariga to'g'ri keldi, biroq ularni har bir maktabga, o'qituvchilarga yetkazish, ularni tayyorlash ancha qiyin kechdi. 1988 yilda o'zbek maktablari uchun yangi dastur chiqdi, lekin u ham rus tilida yozilgand edi[7]. Bu albatta, mahalliy millat vakillari uchun qiyinchilik tug'dirar, chet tillar o'qitilishiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatar edi.

XX asrning 90-yillar boshlari o'zgarishlarga nihoyatda boy davr bo'ldi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng dunyo mamlakatlari orasida nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki iqtisodiy va siyosiy sohalarida ham o'zining munosib o'rniga ega bo'lish imkoniyati tug'ildi. Bu davrda xorijiy mamlakatlar bilan o'rnatilgan diplomatik munosabatlar natijasida chet tillarni, xorijiy davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini chuqur biladigan mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyoj ortdi. SHu bois, mustaqil O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgardi, bu ishga davlat siyosati darajasida e'tibor berila boshladi.

## ADABIYOTLAR

1. Мирзакулов А. Международные научные связи Узбекистана (1960-1980-е годы). Дисс. ... канд. ист. наук.–Фергана, 1993.–140с.; Худайкулов А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX-начало XX в.). Автореф. дисс. ...канд. ист. наук.–Ташкент, 1995.–32 с.; Муминов А. Национальная политика независимого Узбекистана и пути её реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика) Автореф. дисс. докт. полит. наук. – Ташкент, 1999.
2. Абдусаматов М. Ўзбек шарқшунослари. Библиографик очерк.–Тошкент:Қомуслар Бош тахририяти, 1996.–504 б.; Ўзбекистоннинг янги тарихи К.1./Тузувчилар: Ҳ. Содиков, Р. Шамсутдинов, П. Равшанов ва бошқ.–Тошкент:Шарқ, 2000.–464 б.; Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2./Тузувчилар: М. Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ.–Тошкент:Шарқ, 2000.–688 б.; Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат илмий нашрёти, 2007. –280 б.; Андижон тарихидан лавҳалар./Р.Шамсутдинов, А.Исҳоқов.–Тошкент:Шарқ, 2013.–592 б.; Умархўжаев М. Андижон хорижий тиллар бўйича мутахассислар тайёрлашнинг ярим асрлик тарихи.–АДУ, 2016.–142 б.; Алимова Д. История как история, история как наука. –Ташкент:Узбекистан, 2008.–280 с.; Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. Тўққизинчи йил нашри. №12. –Тошкент:Фан, 1975.–73 б.
3. Основные принципы единой трудовой школы. Народное образование в СССР. Сб. документов за 1917-1973 гг. Москва, 1974.– С.33.

4. Социалистическое строительство Узбекской ССР. Статистический сборник. Ташкент, 1940. – С.222-241.
5. Народное образование в СССР, общеобразовательная школа. Сборник документов 1917-1973 гг. Москва:Педагогика, 1974. – С.162.
6. ЎзМА, Р-94-Фонд, 5-рўйхат, 5090-йиғма жилд. Об улучшении преподавания иностранных языков в школах УзССР. 25-варак.
7. ЎзМА, Р-2653-Фонд, 1-рўйхат, 2653-йиғма жилд. Отчет о работе Ташкенцкого государственного педагогического института иностранных языков за 1973/1974 учебный год.140-варак.
8. Материалы планово-финансового управления Министерства просвещения УзССР за 1973 и 1974 годы//Зарипова Р. Чет тил ўқитиш методикасидан қўлланма. – Тошкент:Ўқитувчи, 1986. – Б.110.
9. Ҳошимов Ў., Ёкубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси. –Тошкент:Шарқ, 2003. –Б.69.